The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities ....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida) .....	1168
Kolmatov Sanjarbek Xojimamatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishing asosiy ko'rsatkichlari.....	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choraları .....	1181
Xamraulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari .....	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati .....	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati.....	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budget mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi .....	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari .....	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами .....	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar .....	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'llim sifatini ta'minlash oliv ta'llim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili.....	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish.....	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishing manbalari va yo'llari.....	1232
Raxmanov Ilhom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане .....	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике .....	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries .....	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari .....	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production .....	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari.....	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari.....	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiropi va ahamiyati.....	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari .....	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi.....	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash .....	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



# MAMLAKATDA DAVLAT TIBBIYOT MUASSASALARINING TUTGAN O'RNI VA ULARNI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI

**Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna**

Farg'ona politexnika instituti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasi  
tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Maqolada mamlakat tibbiyot sohasini oxirgi yillarda amalga oshirilgan asosiya va iqtisodiy islohotlarning nati-javiliyi tahlil qilingan. Shu bilan birga, mazkur sohani yanada rivojlantirishdagi yuzaga kelayotgan asosiya muammolar aniqlanib, tadqiqot natijalari asosida ularni bartaraf etish yo'llari bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** ijtimiy taraqqiyot, tibbiyot sohasi, tibbiyot muassasalarini, shifoxona, kasal, tibbiyot buyumlari, dori vositalari.

**Abstract:** The article analyzes the effectiveness of the main reforms implemented in the country's medical sector in recent years. At the same time, the main problems arising in the further development of this field are identified, and the ways to eliminate them are described based on the research results.

**Key words:** social development, medical field, medical institutions, hospital, patient, medical supplies, drugs.

**Аннотация:** В статье анализируется эффективность основных реформ, реализованных в медицинской сфере страны за последние годы. При этом по результатам исследований выявлены основные проблемы, возникающие при дальнейшем развитии данной области, и описаны пути их устранения.

**Ключевые слова:** социальное развитие, медицинская сфера, медицинские учреждения, больница, пациент, медикаменты, лекарственные средства.

## KIRISH

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida tibbiyot sohasi alohida o'rinni egallab, davlatimizning bu sohani rivojlantirishni ustuvor siyosatni sifatida qaraladi. Shu nuqtai nazardan ushbu sohani rivojlantirishda xalqaro andozalar asosida taraqqiy ettirishga, tibbiyot muassasalarini zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan ta'minlashga, aholiga ko'rsatilayotgan tibbiyot xizmatlari sifatini yanada oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki tibbiyot sohasi asosida jamiyat uchun muhim sanalgan – inson salomatligini asrash, inson manfaatlarini ta'minlash, mamlakatning ijtimoiy taraqqiyotini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 22.01.2022-yildagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni bilan tasdiqlangan: "Taraqqiyot strategiyasining 56-maqсадида: Davlat byudjetidan dori vositalari va tibbiy buyumlarga ajratilgan mablag'larning 3 barobarga oshirilishini ta'minlash, davlat tibbiyot muassasalarida dori-darmon va tibbiy buyumlar ta'minotini yanada yaxshilash hamda yetkazib berish va saqlash tizimini takomillashtirish masalalari bayon qilingan"<sup>1</sup>. Bundan kelib chiqadiki, malakat taraqqiyotini ta'minlashda sog'liqni saqlash sohasida amalga oshirilgan imlohotlarni asosiyo yo'nalişlarini o'rganish, kelgusida ushbu sohani yanada taraqqiy ettirish bo'yicha mayjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf eti yuzasidan tavsiya va takliflarni ishlab chiqish – muhim ahamiyat kasb etib, bu tanlangan tadqiqot mavzusini dolzarbliligini belgilab beradi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli. <https://lex.uz/docs/-5841063>



## ADABIYOTLAR TAHLILI

Tibbiyot sohasini rivojlantirish maqsadida, eng avvalo, o'tgan yillarda bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi<sup>2</sup>. Shu bilan birga olimlar tomonidan CIVID-19 pandemiyasini oldini olish<sup>3</sup>, tibbiyotning bir qator olimlar molekulyar biologiyadan saraton tadqiqotlari va immunoterapiyagacha bo'lgan tibbiyot fanining turli sohalarini ifodalaydi. Ularning ishi kasalliklarning mexanizmlarini tushunish va yangi davolash usullarini ishlab chiqish uchun katta ahamiyatga ega sanaladi.

Biz tadqiqotimizda tibbiyot muassasalarini byudjet tashkilot sifatida ularni moliyalashtirish, buxgalteriya hisobi va nazorat faoliyatini tashkil qilish, hisobot tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan. Shu o'rinda, umuman, byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobi, nazoratni tashkil qilish masalalari bo'yicha respublikamiz iqtisodchi olimlaridan A. K. Ibragimov, B. B. Sugirbayev<sup>4</sup>, M. Ostanaqulov, S. U. Mehmonov, M. X. Saidov, Sh. M. Qurbanov, A. Sh. Kuliboyev kabilar ilmiy tadqiqot olib borishgan.

Byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish masalalari bo'yicha Yo'riqnomma tasdiqlangan<sup>5</sup> bo'lib, unda buxgalteriya hisobini tashkil etishning nazariy va amaliy masalalari keltirilgan.

Iqtisodchi olim S. Mehmonovning<sup>6</sup> ilmiy tadqiqotlarda byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish masalalari o'rganilgan.

Iqtisodchi olim Sh.M.Qurbanovning tadqiqotlarda davlat tibbiyot muassasalarida byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va ichki auditini takomillashtirish masalalari o'rganilgan bo'lsa, A.Sh.Kuliboyev tadqiqotlarda davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish masalalari tadqiq qilingan<sup>7</sup>.

Yuqorida ilmiy tadqiqot ishlarda, byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobini tashkil etishning ayrim masalalari yoritilgan. Lekin mazkur ishlarda tibbiyot muassasalarida hozirgi paytda vujudga kelayotgan muammolar va ularni hal qilishdagi buxgalteriya hisobi oldidagi masalalarning yetarlicha tadqiq etilmaganligi, mazkur mavzuning tadqiq ob'yekti sifatida o'rganilishiga sabab bo'ldi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Olib borilgan tadqiqot jarayonida ilmiy ishning nazariy-metodologik asoslarini yoritishga bag'ishlangan tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, guruhash, taqqoslash, statistik jadval kabi usullaridan keng foydalilanilgan.

## TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Bugungi kunda tibbiyot sohasi alohida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida izchil islohotlar olib borilayotgan sohalardan biri, desak adashmagan bo'lamiz. Chunki bugungi kunda davlat tibbiyot muassasalarini bilan bir qatorda xususiy tibbiyot muassasalarining faoliyati ko'rsatishi, davlat tibbiyot muassasalarini rivojlantirish, moddiy texnik bazasini mustahkamlash maqsadada zamonaviy texnologiyalarning jalb etilishi, tibbiyot muassasalarida faoliyati ko'rsatayotgan xodimlarni malakasini oshirish, tibbiyot yo'nalishidagi kadrlarni tayyorlash maqsadida ushbu sohadagi faoliyatida ko'rsatayotgan oliy ta'lim muassasalari va ularning filiallarini turli hududlarda ochilishi, ularda yangi-yangi ta'lim yo'nalishlari kiritilishi, kvota miqdorlarining oshirilishi, tibbiyot muassasalarini xodimlarini moddiy qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlashtirish mexanizmlarining tashkil qilishi, ma'muriy islohotlarda doirasida tibbiyot sohasining davlat boshqaruvini samarali tashkil etilishi kabi amalga oshirilgan ishlarni keltirish mumkin.

Ma'lumki, bugun respublikamizda Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev boshchiligidagi ijtimoiy sohaning eng muhim bo'g'ini bo'lgan tibbiyot sohasini butunlay transformatsiya qilish, uni jahon standartlari darajasiga olib

2 "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 17-may, O'RQ-770-son, "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni, "Barcha respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxati" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-fevraldaggi PF-3214-son Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyulda "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5199-son Qarori

3 Doktor Entoni Fauci – Amerika Qo'shma Shtatlaridagi Milliy Allergiya va yuqumli kasalliklar instituti direktori, COVID-19 bo'yicha o'zining ilmiy maslahatlari bilan mashhur bo'ldi, doktor Jan-Loran Kazanova: COVID kasalligining og'irligiga ta'sir qiluvchi genetik omillar bo'yicha tadqiqotlar-19 va boshqalar.

4 A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev Byudjet nazorati va audit. O'quv qo'llanma. infoCOM.uz MCHJ. –T.: 2010, 192 b.

5 "Byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 105-slonli buyrug'i, 2010-yil 17-dekabr

6 S.U.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarda buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". Iqt.fan.dok. (DSc) ilm. dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2018. – B. 76.

7 Qurbanov Sh.M. "Davlat tibbiyot tashkilotlarda byudjetdan tashqari mablag'lari hisobi va ichki auditni takomillashtirish" Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2022.–B. 59.; Kuliboyev A.Sh. "Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish" Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref.–T.:2022. – B. 59.



chiqish borasida juda katta ishlar amalga oshirilmoqda. Tibbiyot sohasini yanada rivojlantirish, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar ko'lamini yanada kengaytirish, ularning sifatini oshirishga mo'ljallangan 30 ga yaqin Farmon va Qarolarning qabul qilinishi natijasida, birlamchi tizimdan tortib, ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam yo'nalishigacha har bir sohani xalqqa yanada yaqinlashtirish, "Tibbiyotdagi islohotlar – inson qadri uchun" degan ezgu tamoyil asosida aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish bosh mezonga aylangan.

Bularni mamlakatimizda qisqa davrda buyrak, jigar va o'zak hujayralarda transplantatsiya amaliyotlari, epilepsiya kasalligida chip o'rnatish va umurtqa pog'onasi qiyshiqligi radikal correksiyasi kabi noyob jarrohlilik amaliyotlarini o'tkazishning yo'lga qo'yilgani, Milliy tibbiyot markazi hamda Respublika ixtisoslashtirilgan otorino-laringologiya va bosh-bo'yin kasalliklari ilmiy-amaliy tibbiyot markazi kabi muassasalar tashkil qilinganligi, Milliy tibbiyot markazida muassasa tibbiyotimizda birinchi marta xirurgiya, urologiya, transplantologiya, travmatologiya-ortopediya, ginekologiya, kardioxirurgiya, nefrologiya, kardiologiya, endokrinologiya, kardiorevmatologiya, stomatologiya kabi o'nlab bo'limlarni o'z ichiga olgan noyob megaloyiha bo'ldi. Bu yerda yiliga uch mingdan ziyod yuqori texnologik jarrohlilik amaliyotlarini o'tkazishda namoyon bo'ldi. Shu kabi ishlarning natijalar sifatida keltirilgan jadvalda mamlakatimida tibbiyot sohasining asosiy rivojlanish ko'rsatkichlari keltirib o'tilgan.

**1-jadval: O'zbekiston Respublikasida tibbiyot sohasi rivojlanishininig asosiy ko'rsatkichlari<sup>8</sup>**

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
Shifoxona muassasalari soni	1071	1106	1135	1165	1205	1232	1281	1328
Shifoxona o'rinnari soni, ming	129,7	132,0	135,7	153,6	153,4	161,0	165,5	166,9
10 000 aholiga	41,1	41,1	41,6	46,6	45,2	46,6	46,6	46,3
Statsionarlarda davolangan bemorlarning jami soni, ming	5293,9	5581,5	5984,8	6235,6	6154,0	5532,1	5926,1	6952,5
Bitta shifoxona o'rniga to'g'ri keladigan aholi soni	243	243	241	215	221	213	213	216
Homilador ayollar va tug'adiganlar uchun o'rinnar soni, ming	17,6	17,4	17,7	17,4	17,3	17,3	17,8	17,8
10000 ayollarga (15-49 yosh)	20,2	19,9	20,9	19,6	19,3	19,1	19,6	19,3
Ambulatoriya-poliklinika muassasalari soni	6220	6542	5296	5627	5955	6032	6676	7010
Ambulatoriya-poliklinika muassasalarining quvvati, bir smenada qatnovlar soni, ming	407,0	411,9	405,3	440,8	468,6	682,6	461,3	508,0
10000 aholiga	128,9	128,2	124,1	133,7	149,5	197,5	130,8	141,0
Akusherlik-ginekologiya xonalari soni:	2752	2640	2157	2186	1900	1982	1699	2410
Bolalar poliklinikalari (bo`limlari) soni:	1997	1783	1102	1128	2058	1067	535	688
Barcha mutaxassislikdagi shifokorlarning soni, ming	83,4	84,1	85,4	89,8	91,9	93,3	95,6	100,5
10 000 aholiga	26,4	26,2	26,1	27,2	27,1	27,0	27,1	27,9
Bitta shifokorga to'g'ri keladigan aholi soni:	379	382	383	367	369	370	369	358
Barcha mutaxassislikdagi ayol shifokorlarning soni, ming	41,0	43,2	43,1	44,8	44,3	44,4	44,3	47,9
jam'i shifokorlar soniga nisbatan, foizda	51,6	51,4	50,5	49,9	48,2	47,6	46,3	47,7
O'rtal tibbiyot xodimlari soni, ming	336,4	341,3	348,2	356,7	365,7	369,9	372,5	382,8
10 000 aholiga	106,5	106,3	106,6	108,2	107,8	107,0	105,6	106,3
Bitta o'rtal tibbiyot xodimiga to'g'ri keladigan aholi soni	94	94	94	92	92,7	93	95	94

Ushbu 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, o'tgan 2015-2022-yillar davomida tibbiyot sohasida dinamik rivojlanish kuzatilib, barcha ko'rsatkichlari oshib borayotganligini ko'rish mumkin.

8 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining ma'lumotlari asosida muallif tomonidan hisoblangan.



Shu bilan birga oxirgi 7 yilda tibbiyot tizimini isloh qilish va tibbiy xizmatlar sifatini oshirishda Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborlari natijasida katta o'zgarishlar qilindi:

- sog'liqni saqlash tizimiga ajratilayotgan mablag'lар hajmi 2016-yilga nisbatan 5 baravar oshirildi (5,5 trillion so'mdan 30 trillion so'mga);
- hududlarda 2 mingta poliklinika, oilaviy shifokor va mahalla tibbiyot punktlari tashkil etildi.
- Respublika ixtisoslashtirilgan markazlar tomonidan yangi davolash va diagnostika usullarini Markazda va hududlarda tatbiq qilish orqali, aholiga tibbiy xizmatni yanada yaqinlashtirmoqda.

Mamlakatda tibbiyot sohasi xalqimiz salomatligi va taraqqiyotini ta'minlashda muhim o'r'in tutadi. O'zbekistonda tibbiyot ham davlat siyosatining asosiy yo'nalishi hisoblanadi. O'zbekistonda tibbiyotning o'ziga xos xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Bugungi kunda sohada duch kelayotgan muammolarni aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini taklif qilamiz:

Tibbiyotning o'ziga xos jihatlari:

1. **Aholi salomatligini ta'minlash:** Tibbiyot tizimi sifatlari tibbiy xizmat ko'rsatish, kasalliklarning oldini olish va aholi salomatligini har tomonlama mustahkamlashda muhim o'r'in tutadi.
2. **Mamlakatda tibbiyot fanining rivojlanishi:** O'zbekistonda tibbiyot fani jadal rivojlanmoqda, bu davolash va diagnostikaning zamonaviy usullarini joriy etishga xizmat qilmoqda.
3. **Tibbiyot mutaxassislarini tayyorlash:** Mamlakatimiz ta'lim muassasalarida malakali tibbiyot mutaxassislarini yetishtirilayotgani aholiga tibbiy xizmat ko'rsatishni yuqori darajada saqlashda muhim ahamiyatga ega.

Lekin yuqoridagi amalga oshirilgan ishlar, o'ziga xos jihatlari bilan bir qatorda O'zbekiston tibbiyot tizimini dagi mavjud muammolari sirasiga:

1. **Tibbiyot sohasidagi malakali va tajribali xodimlarning yetishmasligi:** Tajribali tibbiyot xodimlarning yetishmasligi, ayniqsa chekka hududlarda tibbiy yordamning mavjudligi va sifatiga ta'sir qilmoqda.
2. **Asbob-uskunalar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi:** Ayrim tibbiyot muassasalarini zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar va moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyati cheklangan bo'lishligini. Ya'ni ayrim tibbiyot muassasalarida o'zlar uchun zarur bo'lgan jihozlarni ham Open-byudjet orqali olishga harakatlar qilinib, bu yerda davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning yetarli emasligini ko'rishimiz mumkin.
3. **Tibbiyot sohasidagi yangiliklar va odamlarning tibbiy bilimlarining yetarli emasligi.** Ayrim hududlarda salomatlik haqida xabardorlik darajasi past bo'lishi, bu esa kasallikning oldini olish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishni qiyinlashtiradi. Shuningdek, yaqinda Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasining 18-64 yoshdagisi aholisi o'rtasida o'tkazilgan tadqiqot natijalarini shuni ko'rsatdiki, har kuni aholining uchdan ikki qismi (67 foiz) yetarli miqdorda (400 grammdan kam) sabzavot va mevalar iste'mol qilmasligi, aholining yarmi og'ir vaznli, 20 foizi semiz ekanligi, 46 foizining qonida xolesterin miqdori oshganligi, aholining o'rtacha tuz iste'moli kuniga 14,9 grammi tashkil etishi aniqlandi9.
4. **Tibbiy xizmatlardan foydalanishning notekis taqsimlanganligi:** sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanishning notekisligi shahar va qishloq joylarining rivojlanishidagi farqlar tufayli yuzaga kelishi mumkin bўлади.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan muammolarni yechimini quydagicha bataraf etish mumkin, deb hisoblaymiz:

1. **Byudjetdan moliyalashtirishni mablag'larini ko'paytirish:** Sog'liqni saqlashni moliyalashtirishni ko'paytirish sifatlari tibbiy xizmatdan foydalanishni yaxshilashga yordam beradi.
2. **Tibbiyot muassasalarida xodimlarning tayyorlash va rivojlantirish:** Sog'liqni saqlash xodimlarning o'qitish va malakasini oshirishga, sarmoya kiritish tajribali mutaxassislarning yetishmasligini kamaytirish imkoniyatini ega bo'lish mumkin. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi "2024-yildagi asosiy ko'rsatkichlarini e'lon qilindi va unga asosan:
- AQSHning Webster universitetiga "Tibbiyot muassasalarini tashkil etish va boshqarish" dasturi bo'yicha 50 nafar o'zbekistonlik yosh mutaxassis davlat hisobidan o'qishga yuboriladi.

9 Sanitariya-epidemiologiya qo'mitasi ma'lumotlari asosida tayyorlangan. <https://t.me/sanepidcommittee/11002>



- 11 ta tibbiyot oliy ta'lif muassasalari va 74 ta tibbiyot texnikumlarida bepul til o'rgatish markazlari tashkil etiladi.
  - Tibbiyot oliy ta'lif muassasalari talabalari kabi, tibbiyot tizimida ishlayotgan yoshlarda IELTS, TOEFL va unga tenglashtirilgan til sertifikatlariga ega bo'lganlarni har oyda 1 mln.so'm miqdorida rag'batlantirish mexanizmlari joriy etiladi.
  - Yoshlar orasida (30 yoshgacha) doktorlik dissertatsiyasini yoqlagan har bir ilmiy izlanuvchiga va uning ilmiy rahbariga 30 mln.so'mdan pul mukofoti beriladi. Agar izlanuvchi ayol kishi bo'lsa 50 mln. so'm bersak, menimchaadolatli bo'ladi.
  - 100 nafar bakalavriat va 100 nafar tibbiyot texnikumlari talabalari, 50 nafar magistr va klinik ordinatura talabalari uchun xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitet klinikalarida vazirlilik mablag'lari hisobidan "Yozgi amaliyot maktablari" doimiy ravishda tashkil etiladi.
  - Iqtidorli 20 nafar magistrantlarni xorijiy davlatlarning (Rossiya, AQSH, Germaniya, Turkiya, Koreya, Fransiya, Yaponiya) universitetlarda vazirlilik mablag'lari hisobidan 1 semestrdan kam bo'limgan muddatda akademik mobililik dasturlari joriy etiladi<sup>10</sup>.
- 3. Tibbiyot muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish:** Tibbiyot muassasalari infratuzilmasini modernizatsiya qilish asosida zamonaviy asbob-uskunalar va resurslardan foydalanishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.
- 4. Aholini birlamchi tibbiyot muassasalari orqali xabardorlik va tibbiy madaniyatini shakllantirish maqsadga muvofiq.** Mazkur axborot kompaniyalari (zarur holda televidiniyada sog'liqni saqlash bo'yicha alohida telekanalni tashkil qilish), qisqa muddatli ta'lif dasturlarini o'tkazish sog'liqni saqlash bo'yicha tibbiy madaniyatini shakllantirish asosida aholining xabardorligini ta'minlashga yordam beradi.
- 5. Tibbiyot xodimlarida professional motivatsiyasi bo'yicha yetarlicha rag'batlashtirish mexanizmlarini shakllanmaganligi.** Ko'rsatilayotgan tibbiy yordam sifatiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan davlat tibbiyot muassasalarida tibbiy xodimlarni rag'batlantirish muammolarida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli malakali va tajribali shifokorlar o'zlarini xususiy tibbiyot muassasalariga yoki bir qatorda muassasasalarida faoliyatini tashkil qilishga sabab bo'lmoqda. Shu o'rinda xorijiy KPI ko'rsatkichlariga bog'liq holda natijaviy faoliyatiga doir mexanizmlarni ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.
- Shuningdek, zamonaviy texnologiyalarni jalb qilish maqsadida investitsiyalar hajmini oshirishga alohida e'tibor qaratilishi zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida taqqidim etilayotgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari talabalari asosida tayyorlashni nazarda tutadi.
- 6. Tibbiyot muassasalarida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni ta'minlash** zarur. Bu, o'z navbatida, tibbiy xizmatlarni hisobga olish, monitoring qilish va ko'rsatish samaradorligini oshirish uchun axborot texnologiyalarini joriy etish asosida kelgusida faoliyat yo'nalishlarini belgilash imkoniyatini beradi.
- 7. Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni ta'minlash.** Tibbiyot muassasalarining tajriba almashish va qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro hamkorlik ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda bu masala – xususiy tibbiyot tashkilotlarida yaxshi yo'lgan qo'yilganligini guvohi bo'lmoqdamiz.

Yuqorida keltirib o'tilgan masalalarni hal qilishda tibbiyot sohasining barcha manfaatdor tomonlari, jumladan, davlat organlari, davlat tibbiyot muassasalari, tibbiyot xodimlari va jamiyat bilan kompleks yondashuv va hamkorlikda olib borishni talab etiladi. Bu o'z navbatida, mamlakatda kelgusida tibbiyot sohasini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Tibbiyot muassasalari faoliyatini samarali tashkil qilishda byudjetdan ajratiladigan mablag'larni oshirish, lekin ularni tizimli rishda ishlashini ta'minlash zarur bo'ladi.

<sup>10</sup> O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi ma'lumotlari asosiy tayyorlangan.



2. Tibbiyot muassasalarini moddiy texnik bazasini kuchaytirishga alohida e'tibor qaratish zarur bo'ladi. Bu o'z navbatida, aholiga sifatli tibbiyot xizmatlari bilan bir qatorda pullik xizmatlarni tashkil qilish, qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalg qilish imkoniyati yaratiladi.
3. Davlat tibbiyot muassasalarida xodimlarni rag'batlantirishning moliyaviy jihatdan aniq mezonlarini ino-batga olgan mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy KPI ko'rsatkichlariga bog'liq holda natijaviy faoliyatiga doir rag'batlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur, deb hisoblaymiz.

**Фойдаланилган адабиётлар/Reference:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategi-yasi to'g'risida"gi Farmoni, 28.01.2022-yildagi PF-60-sonli. <https://lex.uz/docs/-5841063>
2. "O'zbekiston Respublikasida tibbiy-ijtimoiy xizmatlar tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim Qonun hujjatlariga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 2022-yil 17-may, O'RQ-770-son.
3. O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmasevtika faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2016-yil 4-yanvar, O'RQ-399-son. <https://lex.uz/acts/-2856464>
4. Barcha respublika ixtisoslashtirilgan ilmiy-amaliy tibbiyot markazlari tomonidan O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti mablag'lari hisobiga tibbiy yordam ko'rsatiladigan imtiyozli toifadagi shaxslar ro'yxati" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 26-fevraldagi PF-3214-son Farmoni
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 28-iyuldag'i "Sog'liqni saqlash sohasida ixtisoslashtirilgan tibbiy yordam ko'rsatish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5199-son Qarori
6. A.K.Ibragimov, B.B.Sugirbayev Byudjet nazorati va audit. O'quv qo'llanma. infoCOM.uz MCHJ. –T.: 2010, 192 b.
7. "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risidagi yo'riqnomani tasdiqlash haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Moliva vazirligining 105-sonli buyrug'i, 2010-yil 17-dekabr
8. S.U.Mehmonov "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi va ichki audit metodologiyasini takomillashtirish". Iqt.fan. dok. (DSc) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2018. – B. 76
9. Qurbonov Sh.M. "Davlat tibbiyot tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobi va ichki auditni takomillashtirish" Iqt.fan.fal.dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2022.–B. 59.
10. Kuliboyev A.Sh. "Davlat tibbiyot muassasalarida buxgalteriya hisobi va moliyaviy nazoratni takomillashtirish" Iqt.fan.fal. dok. (PhD) ilm.dar.olish uchun yozil. dis.avtoref. –T.:2022. – B. 59.

# Yashi

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2023. № 11-12**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

#### Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.

